

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i> MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i> IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i> MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i> OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i> JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i> RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i> RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i> HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i> СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmuratov Umidjon Temurovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i> JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIK LARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIK LAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUIJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

IDEOLOGY AND NATIONAL IDEOLOGY CONCEPTS: CONTENT, ESSENCE AND SOCIAL FUNCTIONS

Matchanova Barno

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy, Associate Professor
Independent Researcher, Institute of Social and Spiritual Studies

Abstract. The concepts of “ideology” and “national ideology” play an important role in human history, social life, and political processes. This article analyzes the content, essence, and social functions of ideology and national ideology. National ideology reflects the connection of an individual with cultural, historical, and traditional values, and plays a key role in preserving and developing national identity. In addition, the article examines the changes and new forms of national ideology in the context of global processes and intercultural interaction.

Keywords: Ideology, national ideology, national identity, social functions, cultural heritage, historical values, national values, national consciousness, global processes, intercultural communication, political identity, traditional values, uniqueness of the nation.

MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI

Matchanova Barno

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada, mafkura va milliy mafkura tushunchalari insoniyat tarixida, ijtimoiy hayotda va siyosiy jarayonlarda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada mafkura va milliy mafkura tushunchalarining mazmuni, mohiyati va ularning ijtimoiy funksiyalari tahlil qilinadi. Milliy mafkura shaxsning madaniy, tarixiy va an'anaviy qadriyatlar bilan bog'liqligini, millatning identitetini saqlash va rivojlantirishdagi rolini ifodalaydi. Shu bilan birga, maqolada global jarayonlar va madaniyatlararo o'zaro ta'sir kontekstida milliy mafkuraning o'zgarishi va yangi shakllari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: mafkura, milliy mafkura, milliy identitet, ijtimoiy funksiyalar, madaniy meros, tarixiy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, milliy ong, global jarayonlar, madaniyatlararo muloqot, siyosiy identitet, an'anaviy qadriyatlar, millatning o'ziga xosligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N14>

Kirish. Jamiyatning shakllanishi va uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, g'oya va mafkuralar jamiyat hayotida faqat nazariy hodisa bo'lib qolmagan, balki ijtimoiy transformatsiyalarni harakatga keltiruvchi, yo'naltiruvchi va tartibga soluvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lgan. Har bir tarixiy davrda jamiyatning siyosiy tuzilishi, iqtisodiy munosabatlari, ma'naviy qadriyatlari va madaniy yo'nalishlari muayyan mafkuraviy qarashlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Mafkura jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy, iqtisodiy-siyosiy hamda madaniy-diniy tizimlari tarkibida mavjud bo'lgan murakkab va ko'p qatlamli hodisa bo'lib, u ijtimoiy ongning umumiy yo'nalishini, jamiyat a'zolarining

dunyoqarashi va amaliy faoliyatini belgilab beradi [3]. Shu ma'noda mafkura nafaqat mavjud ijtimoiy munosabatlarni izohlovchi, balki ularni legitimlashtiruvchi, mustahkamlovchi yoki muayyan sharoitda tubdan o'zgartirishga undovchi g'oyaviy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mafkura va milliy mafkura tushunchalari turli olimlar tomonidan har xil jihatlari bilan o'rganilgan. Masalan, Antuan Destyut de Trasi hamda Etien Bonno de Kondilyak qarashlarida tizimli ilmiy tushuncha sifatida asoslab berilgan. Xorijiy olimlar, xususan, E.Dyurgeym va M. Weber, milliy mafkura ijtimoiy identitet va madaniy qadriyatlarni shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydilar [5]. Zamonaviy tadqiqotlarda milliy mafkura global jarayonlar, madaniyatlararo muloqot va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq ekanligi ko'rsatilgan. Shuningdek, O'zbekiston olimlari Z.Davronov, I.Ergashev Q.Nazarov va boshqalar, milliy mafkura kontsepsiyasini o'zbek milliy tarixi, madaniyati va an'analari nuqtai nazaridan tahlil qilganlar. Ularga ko'ra, milliy mafkura nafaqat tarixiy va madaniy merosni saqlash, balki yosh avlodning ma'naviy barkamolligini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy adabiyotlarda globalizatsiya, ko'p madaniyatlilik va texnologik taraqqiyot milliy mafkura mazmunini yangilash va kengaytirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Asosiy qism. Ilmiy-falsafiy manbalarda qayd etilishicha, "mafkura" (ideologiya) tushunchasi XVIII asr oxirlarida G'arb falsafiy tafakkuri doirasida shakllangan [1]. Ushbu atama dastlab fransuz mutafakkirlari – Antuan Destyut de Trasi hamda Etien Bonno de Kondilyak qarashlarida tizimli ilmiy tushuncha sifatida asoslab berilgan. Xususan, fransuz tilidagi "Rober" lug'atida "ideologiya" so'zining ilk bor 1796-yilda, "ideolog" atamasining esa 1800-yilda ilmiy muomalaga kirib kelgani qayd etiladi [5]. "Mafkura" atamasi ilmiy termin sifatida graf Destyut de Trasi tomonidan 1796-yil 20-iyunda Milliy fan va texnika institutida taqdim etilgan "Mafkura loyihasi" nomli ma'ruzasida qo'llanilgan bo'lib, keyinchalik u o'zining "Mafkura asoslari" asarida mazkur tushunchani izchil nazariy jihatdan asoslab bergan. Mazkur asar ta'lim tizimini qayta tashkil etish masalalari bilan uzviy bog'liq holda yozilgan bo'lib, unda mafkura keng ma'noda fanlar birligini tiklashga qaratilgan tizimli g'oyalar majmui sifatida talqin etiladi. Destyut de Trasi qarashlari J. Lokk va E. B. Kondilyakning empirik falsafiy an'alariga tayanib, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida shakllangan "ideologlar" nomi bilan tanilgan falsafiy maktabning nazariy asoslarini birlashtirgan [4]. Ushbu maktab vakillari mafkurani "g'oyalar haqidagi fan" sifatida talqin qilib, inson tafakkuri, ijtimoiy ong va bilish jarayonlarining manbalarini ilmiy tahlil qilishga intilganlar.

Xususan, Kondilyak kontsepsiyasida jamiyat taraqqiyotida g'oya va mafkuralarning o'rni alohida ta'kidlanib, ular ijtimoiy ong, bilish jarayoni va amaliy faoliyatning shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida izohlanadi. Bu yondashuv mafkurani mavhum nazariy tushuncha sifatidagina emas, balki ijtimoiy rivojlanishning muhim intellektual va ma'naviy resursi sifatida baholash imkonini beradi. Destyut de Trasi mafkura va g'oyalar shakllanish jarayonida shaxsning bilish faoliyatini tashkil etuvchi asosiy qobiliyatlarga alohida e'tibor qaratadi. U inson tafakkurining to'rtta fundamental komponentini – hissiy idrok, xotira, ishonch hosil qilish qobiliyati va irodani ajratib ko'rsatadi. Mazkur omillar g'oyalarning vujudga kelishi, mustahkamlanishi va ijtimoiy ongda barqarorlashuv mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, ideologlar g'oya va bilimlarning shakllanishini tasodifiy

emas, balki muayyan umumiy qonuniyatlarga asoslangan tizimli jarayon sifatida talqin etishga intilganlar.

Mazkur konsepsiya J.Lokkning sensualistik gnoseologiyasiga tayanib, g'oyalarning paydo bo'lishini hissiy tajriba mazmunidan kelib chiqadigan umumiy qoidalar tizimi orqali izohlaydi. Natijada, Destyut de Trasi ideologiyani axloq, siyosat va huquq sohalarining nazariy-metodologik poydevori sifatida ko'rib, uni jamiyat hayotini ongli ravishda tartibga solish imkonini beruvchi intellektual vosita deb baholaydi. Biroq ideologlar qarashlarining siyosiy amaliyotga tatbiqi murakkab tarixiy sharoitda yuz bergan. Destyut de Trasi va Kondilyak Napoleon Bonapart hokimiyatga kelganidan so'ng, o'z g'oyalarini davlat siyosatiga singdirishga uringanlar. Ammo Napoleon ularning ijtimoiy-siyosiy voqelikni ko'proq mavhum nazariy konstruksiyalar orqali izohlashga intilishini amaliy siyosatdan uzilgan deb baholab, bu qarashlarga tanqidiy munosabat bildirgan [6]. Aynan shu tarixiy omil ta'sirida "ideologiya" atamasi tanqidiy, hatto kinoyaviy mazmun kasb etib, keyingi davrlarda ham ushbu semantik yuklama qisman saqlanib qolgan. Ideologlar loyihasining siyosiy jihatdan rad etilishi natijasida mazkur tushuncha muayyan muddat ilmiy va siyosiy muomaladan chekinib turgan.

Mafkura tushunchasi mazmunan ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar va davlatlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda strategik maqsadlarini ifodalovchi g'oyalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. U ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, turli manfaatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash va muayyan ijtimoiy yo'nalishni legitimlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ideologiya (yunoncha: idea – tasavvur, g'oya; logos – so'z, ta'limot) konseptual jihatdan shakllangan g'oyalar tizimi bo'lib, u sinflar, millatlar, jamiyatlar, siyosiy institutlar va ijtimoiy harakatlarning manfaatlari hamda ideallarini ifodalaydi. Ideologiya ayrim hollarda mavjud siyosiy va ijtimoiy tuzumni mustahkamlovchi (konservativ yo'nalish), boshqa vaziyatlarda esa uni tubdan o'zgartirishga intiluvchi g'oyaviy dastur sifatida namoyon bo'ladi [8]. Shu bois u jamiyat ongi shakllaridan biri sifatida madaniyat va ma'naviy ishlab chiqarish tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ideologiya ilmiy fan emas, biroq u ilmiy bilimlar natijalaridan foydalanishi mumkin; uning asosiy farqi shundaki, u ijtimoiy-siyosiy voqelikni xolis tasvirlashdan ko'ra, muayyan ijtimoiy kuchlar manfaatlari nuqtai nazaridan baholaydi.

Zamonaviy davrda mafkuraviy jarayonlar globallashuv, ommaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining keskin rivoji bilan uzviy bog'liq holda kechmoqda. Shu nuqtai nazardan, ideologiya ko'pincha ommaviy madaniyat bilan chambarchas bog'langan hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ideologiya ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi va uni rivojlantirishga turtki beruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, omma uchun mo'ljallangan madaniy mahsulotlar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytiradi. Ommaviy madaniyat mafkuradan xoli bo'lishi mumkin emas, chunki mafkura aynan kundalik ehtiyojlar, sodda tasavvurlar va ommaviy ong darajasida faoliyat yuritadi. Ommaviy ong bilan ishlash jarayonida ideologiya ilmiy bilimlarga qaraganda ko'proq samaradorlikka ega bo'ladi. Buning sababi shundaki, ilmiy tafakkur murakkab tahlil va tanqidiy yondashuvni talab etadi, ideologiya esa soddalashtirilgan, hissiy jihatdan ta'sirchan va tez qabul qilinadigan g'oyalar orqali ommaga murojaat qiladi. Shu bois omma tarixiy jarayonlarda faol subyekt sifatida namoyon bo'la boshlagan pallalarda ideologiya siyosiy hokimiyat uchun kurashda muhim vositaga aylanadi. Bu jarayon, o'z navbatida, madaniyatning ichki mazmuniga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning soddalashuvi va inqirozga yuz tutishiga olib kelishi mumkin.

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda mafkura rivojlanishining uch bosqichi ajratib ko'rsatiladi. Bular, dialektik, demagogik va dogmatik bosqichlar. Dialektik (yoki falsafiy) bosqich ideologiyaning shakllanish davri bo'lib, unda g'oyalar hali qat'iy tizimlashmagan, biroq falsafa, ilm-fan, san'at va madaniyatning boshqa sohalari bilan faol aloqada bo'ladi. Bu davrda mafkura raqobatdagi boshqa g'oyaviy oqimlar bilan munozara va kurash orqali o'z konturlarini aniqlashtiradi.

Ikkinchi – demagogik bosqich mafkuraning keng ommaga tarqalish davri hisoblanadi. Mazkur bosqichda mafkura ommani safarbar etish, ularning hissiyotlari va manfaatlariga moslashish orqali tez sur'atlarda yoyiladi. Bu jarayon ayrim tadqiqotchilar tomonidan mafkura "infeksiya" metaforasi orqali izohlanadi, ya'ni ideologiya barqaror e'tiqodga ega bo'lmagan ong'larni tezda o'z ta'siriga oladi va katta ijtimoiy qatlamlarni qamrab oladi.

Uchinchi – dogmatik bosqichda ideologiya o'zining dastlabki ijodiy va tanqidiy salohiyatini yo'qotib, qat'iy dogmalar majmuasiga aylanadi. Bu holatda g'oyalar real hayot ehtiyojlaridan uzilib, tanqidga yopiq holga keladi. Natijada ideologiya falsafiy tafakkurdan voz kechib, uni inkor etuvchi kuchga aylanadi. Aynan shu bosqich ideologiyaning inqirozi va asta-sekin tarix sahnasidan chekinishiga zamin yaratadi.

Mafkura dastlab madaniyatning ichki qatlamlarida, uning bir sohasi sifatida vujudga keladi, biroq keyinchalik butun madaniy makonni bo'ysundirishga intiladi. Bu holat madaniyat uchun eng jiddiy tahdidlardan biri hisoblanadi. G. Gegel ta'biri bilan aytganda, bunday vaziyatda madaniyat "o'zining boshqasiga" aylanadi, ya'ni o'z mohiyatiga zid shaklga kiradi [7]. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ideologiya hokimiyat uchun kurash maydoniga XVIII asr oxirlarida faol kirib kelgan bo'lsa-da, uning to'liq mustahkamlanishi Birinchi jahon urushidan keyingi davrga to'g'ri keladi. Fransiya inqilobi, shuningdek XX asr boshlaridagi inqilobiy jarayonlar ideologiyaning qanday qilib ozodlik, tenglik va birodarlik kabi yuksak shiorlar ostida hokimiyatni qo'lga kiritib, keyinchalik repressiv mexanizmlarga aylanishi mumkinligini yaqqol namoyon etdi. Turli tarixiy shakllarda – liberal-kapitalistik, milliy va sotsialistik ideologiyalar ko'rinishida namoyon bo'lgan ushbu jarayonlar jamiyatga baxt va farovonlik va'da qilgan bo'lsa-da, amaliyotda bu va'dalarning to'liq ro'yobga chiqmaganini ko'rsatdi. Bu holat ideologiyaning ichki ziddiyatlari va uning tarixiy chegaralanganligini ilmiy jihatdan tahlil qilish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Bizga ma'lumki, mafkura tushunchasining umumiy nazariy tahlilidan kelib chiqib, milliy mafkurani jamiyat taraqqiyotining muhim ma'naviy-siyosiy tayanchi sifatida talqin etish mumkin. Milliy mafkura – bu muayyan xalqning tarixiy tajribasi, madaniy merosi, ijtimoiy xotirasi, qadriyatlar tizimi hamda uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini o'zida mujassam etgan murakkab g'oyaviy tizimdir. U nafaqat jamiyatning bugungi holatini izohlash, balki uning istiqboliy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash vazifasini ham bajaradi.

Ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, milliy mafkura obyektiv tarixiy jarayonlar bilan subyektiv ijtimoiy ong o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mahsulidir. U spontan ravishda emas, balki muayyan tarixiy sharoitlar, ijtimoiy ehtiyojlar va siyosiy-ma'naviy muammolar ta'sirida shakllanadi [9]. Shu sababli milliy mafkura doimo dinamik xarakterga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyoti bilan birga takomillashib boradi.

Milliy mafkuraning asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri – jamiyatning ichki barqarorligini ta'minlashdir. Ijtimoiy tizimda turli manfaatlar, qarashlar va guruhlar mavjud bo'lgan sharoitda milliy mafkura ularni umumiy g'oyaviy maydonda uyg'unlashtiruvchi integrativ mexanizm

vazifasini bajaradi [11]. Bu integratsiya zo‘ravonlik yoki ma‘muriy bosim asosida emas, balki umumiy tarixiy xotira, madaniy qadriyatlar va kelajak uchun umumiy mas‘uliyat hissi orqali amalga oshiriladi. Falsafiy jihatdan milliy mafkura milliy o‘zlikni anglash jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Milliy o‘zlik – bu faqat etnik yoki hududiy mansublik emas, balki tarixiy taqdir, madaniy tajriba va ma‘naviy merosga ongli munosabatdir. Milliy mafkura aynan shu ongli munosabatni shakllantiradi, jamiyat a‘zolarida “biz kimmiz?”, “qayerdan keldik?” va “qayerga ketmoqdamiz?” kabi fundamental savollarga nisbatan umumiy tushuncha va pozitsiyani vujudga keltiradi [10].

Milliy mafkura universallik da‘vosidan ko‘ra, aniq tarixiy-madaniy kontekstga tayanganligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan u global yoki transmilliy ideologiyalardan tubdan farq qiladi. Global ideologiyalar ko‘pincha umumlashtirilgan, standartlashtirilgan model va shiorlarga tayanib, turli jamiyatlarga bir xil yondashuvni taklif etsa, milliy mafkura konkret jamiyatning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li, madaniy kodlari va mental tuzilmasini hisobga oladi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom milliy mafkura jamiyatni yopiq yoki izolyatsiyalangan holatga olib kelmaydi. Aksincha, u global jarayonlarga ochiqlikni saqlagan holda milliy manfaatlarni himoya qilish imkonini beradi. Bu jihatdan milliy mafkura globalizatsiya sharoitida madaniy assimilyatsiya va ma‘naviy standartlashuvga qarshi muhim himoya mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, milliy mafkura jamiyat hayotida faqat siyosiy vosita emas, balki chuqur ma‘naviy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. U tarixiy xotirani saqlash, milliy o‘zlikni mustahkamlash, ijtimoiy birdamlikni ta‘minlash va jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini kafolatlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Mafkura va ommaviy madaniyat o‘rtasidagi munosabat zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurning markaziy muammolaridan biridir. Ideologiya ommaga yo‘naltirilgan g‘oyalar tizimi sifatida faqat siyosiy maydon bilan cheklanib qolmay, balki madaniyatning ommaviy shakllarini ishlab chiqish va ularni muayyan ijtimoiy manfaatlarga bo‘ysundirish mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu ma‘noda, ideologiya ko‘pincha “omma uchun madaniyat”ni shakllantiradi va uni ijtimoiy ongni boshqarish vositasiga aylantiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Бобровников Н. Идеология // Большая советская энциклопедия: В 65 томах / гл. ред. О. Ю. Шмидт. – 1-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1933. – Т. 27. – С. 452–463.
2. Идеология // Большая советская энциклопедия: в 51 томе / Гл. ред. Б. А. Введенский. – 2-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1952. – Т. 17. – С. 333–337.
3. Антонович И. И. Социодинамика идеологий. – Мн., 1995.
4. Жижек С. Возвышенный Объект Идеологии. – М.: «Художественный журнал», 1999. – ISBN 5-901116-01-1
5. Идеология / Келле В. Ж. // Большая советская энциклопедия : [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров. – 3-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1969–1978.
6. Логинов Алексей Валерьевич. Идеология как проблема социальной онтологии : Дис. ... канд. филос. наук : 09.00.11 : Екатеринбург, 2004. – 136 с.
7. Макаренко В. П. Главные идеологии современности. – Ростов н/Д.: Феникс, 2000.
8. Манхейм Карл. Идеология и утопия // Избранное. Диагноз нашего времени. – М.: Юрист, 1994. – С. 7–276.
9. Мисюров Д. А. Какая идеология нужна России? // Вестник Московского университета. Серия 12. Политические науки. 1996. No 2. С. 84–86.

10. Савельева О. О. Формирование новой российской идеологии // Свободная мысль. – 2000. – № 3.
11. В. С. Мартьянова, Л. Г. Фишмана. Россия в поисках идеологий: трансформация ценностных регуляторов современных обществ / под ред. – М.: Политическая энциклопедия, 2016.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).